

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA CHORA-TADBIRLARI

TURDIMURODOV NAVRUZ

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI TALABASI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada korrupsiya tushunchasiga ta'rif, korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalari, davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi, komplayens nazorat tizimi, korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy davlatlar qonunchiligi va tajribasi o'rganib, tahlil qilindi, korrupsiyaga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik va korrupsiyaning oldini olishning yangicha chora-tadbirlari bo'yicha amaliy taklif va ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxo'rlik, komplayens tizim.

АМУР ТЕМУР В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ И СПРАВЕДЛИВОСТЬ

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы Сахибкирана Амира Темур в сфере государственного управления и его справедливость, искусство управления страной на основе справедливости, критерии справедливости в системе наказаний и поощрений, равенство и порядок в государственном управлении, его политическая деятельность, чёткие правила в «Темур тузуклари», а также его военное мастерство. Можно наблюдать, что проводимые в Узбекистане реформы во многом опираются на опыт Амира Темура в сфере государственного управления.

Ключевые слова: Амир Темур, мужество, храбрость, государственное право, ценности, справедливость, закон и порядок, тузуки, верховенство закона.

AMIR TEMUR IN STATE GOVERNANCE AND JUSTICE

Abstract: This article discusses the reforms of Amir Temur in the field of state governance and his sense of justice, the art of governing a country based on fairness, the criteria of justice in punishment and reward systems, equality and order in public administration, his political activity, the clear rules set out in the “Temur Tuzuks,” as well as his military mastery. It can be observed that the reforms being carried out in Uzbekistan also draw on the experience of Amir Temur in state governance.

Keywords: Amir Temur, bravery, courage, state law, values, justice, law and order, Tuzuks, rule of law.

Korrupsiya – davlatni ich-ichidan yemiruvchi illat bo’lib, jahon hamjamiyati oldida davlatlar rivojlanishiga iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatmasdan qolmaydi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo’lmaydi, umuman jamiyatning birorta tarmog’i rivojlanmaydi”. Insoniyat qadimdan bu illat bilan kurashib kelmoqda va bugungi kunga kelib korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish barcha davlatlarning eng asosiy vazifalaridan biri deya e’tirof etilmoqda.

2017-yil 7-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risida”gi qonun yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashda yangi sahifa ochib berdi. Ushbu qonunda shunday deyiladi, “Korrupsiya – shaxsning o’z manfaat yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda taqdim etish” [1], -deya ta’rif beriladi. Shuningdek ushbu qonunda ko’rsatilgandek O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilar:

O’zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ;

O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O’zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq , 2020-yilning 29-iyunida tashkil etildi. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdordir. Bugungi kunda ushbu agentlikning korrupsiya sohasida olib borayotgan faoliyati ijobiy natijalar ko'rsatmoqda. Jumladan, 2020-yilda Transparency International tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston 31-o'rinni egallagan bo'lsa 2025-yilga xalqaro reytingda 3 pog'ona pastladi.

Avvalo, korrupsiyaning kelib chiqish sabablariga to'xtalsak, tadqiqotchilar korrupsiya rivojlanishining to'rtta asosiy sababini aniqlashdi:

- Huquqiy sabablari. Korrupsiya rivojlanishi qonunlar sifatiga bog'liqdir. Ba'zi qonunlar ishlanaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.
- Institutsional sabablar. Birinchi o'rinda davlat tomonidan tartibga solish tizimining kamchiliklari turadi. Shuningdek, demokratik institutlarning ojizligi, hukumat faoliyatining yaqinligi yoki bu tadbirlarning fuqarolik nazoratidan uzoqligi kiradi.
- Ijtimoiy sabablar yoki ijtimoiy muhit. Bu omillarga aholining huquqiy bilim darajasi, madaniyat darajasi, ma'naviyati jamiyat faoliyatining barcha jabhalarida sustligi kiradi.

Shuningdek, korrupsiyaning jamiyatimiz hayotiga kirib borishida bir qator siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va psixologik omillari mavjud.

- Iqtisodiy jihatdan misollar keltirsak, birinchidan inflatsiyaning kuchayishi, iqtisodiy beqarorlik – bu davlat xizmatchilarini boshqa daromad manbayini izlashga undaydi. Ikkinchidan, mehnatga haq to'lash miqdori kamligidan

xodimlarning norozi kayfiyatda bo'lishi – bu xodimda korrupsiyaga bo'lgan moyillikni oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimida siyosiy omillarning ham ahamiyati katta. Avvalo, xodimlarning o'z vazifalarini bajarishi ustidan samarali nazorat yo'qligi, bu davlat organlari tizimida ichki tizimlarning zaifligini keltirib chiqaradi va fuqarolarning davlat hokimiyatiga va uning organlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tahminiga ko'ra, korrupsiya darajasining o'sishiga to'rtta asosiy sabab keltirilgan. Birinchidan, imkoniyatlar – tizim samarasiz ishlayotganida va kishilar mavjud tartib hamda qonunlarni inobatga olmasdan o'z maqsadlariga erishish usulini topishlari kerak bo'lganida, ular korrupsiyaga tezroq chalinishadi. Ikkinchidan, fosh etilish ehtimolining pastligi – hisobdorlikning yo'qligi, eng avvalo transparentlik, shaffoflikning yo'qligi va huquqni qo'llash tizimining zaifligi. Uchinchidan, motivatsiyaning yomonligi – xodimlar olayotgan maoshidan qoniqmasa, ertangi kunda yaxshi yashashiga ishonchi bo'lmasa, korrupsiya orqali o'z daromadini to'ldiradi. To'rtinchidan, ko'p hollarda oddiy odamlar qonunlarni hurmat qilmay qo'yadi va hukumatning chiqargan qarorlarini chetlab o'tishga harakat qiladi.

“Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi qonunning 3-moddasida “manfaatlar to'qnashuvi”ga ta'rif berilgan bo'lib, ushbu qonunda manfaatlar to'qnashuviga “shaxsiy (bevosita va bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat sifatida ta'rif berilgan”.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan shuni tushunamizki, manfaatlar to'qnashuvi bevosita shaxsning o'z manfaatlarini asosiy o'ringa qo'yadi. Aksariyat hollarda, shaxsiy manfaatdorlik davlat xizmatchilarining o'zi bilan bo'g'liq bo'lsa, ayrim hollarda bilvosita ham bo'lishi mumkin, ya'ni, o'zining qarindoshlariga, tanishlariga nisbatan yuz bersa ham ushbu holatni manfaatlar to'qnashuvi sifatida baholaymiz. Davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi, avvalo mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir

ko'rsatadigan asosiy to'siqlardan biri bo'lib , jinoyatchilikning ko'payishiga va yashirin iqtisodiyotga sharoit yaratib beradi.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi:"Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi keskin kurashish , bu borada davlat organlaridan tortib,jamiyatning barcha bo'g'ini fuqarolar ham qat'iy harakat qilishi lozim. Davlat xizmatida korrupsiyaning oldini olishda davlat xizmatchilarini ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish,ochiq ma'lumotlar ro'yhatini kengaytirish maqsadga muvofiq"

Davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga oid qator qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilgan bo'lib , xususan, "Mahalliy hokimiyat to'g'risida", "Davlat statistikasi to'g'risida", "Homiylilik to'g'risida"gi kabi qonunlarda manfaatlar to'qnashuvi belgilab o'tilgan.

Jamiyatda korrupsiya ,asosan ,davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar bilan munosabatida ,hokimiyat organlarining tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarida va demokratik jamiyatda odil sudlovni amalga oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Korrupsiyaning oldini olishda bugungi kunda xorijiy davlatlar tajribalarini qo'llash borasida samarali tizim yo'lga qo'yilganligi,milliy qonunchiligimizni takomillashtirish maqsadida xalqaro standartlarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish, amalda korrupsiyaga qarshi kurashning yangicha tizimlarini joriy qilish samara bermoqda.

Shulardan biri sohada keng qo'llanilayotgan va samarali qo'llanilayotgan komplayens nazorat tizimi hisoblanadi.Ushbu tizim korrupsiyaga qarshi kurashning muhim tarkibiy qismi bo'lib , davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar,banklar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurash sohasida xalqaro standartlarga rioya qilish, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va unga chek qo'yish , korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga oid jinoyatlarda xabar berishni o'zida aks ettirgan profilaktik tizim.Rossiya ichki audit instituti kengashi a'zosi D.V.Malixin fikricha, komplayens – ma'lum ko'rsatma , qoida va maxsus talablar asosida vaziyatni nazorat qilishdan iborat tizim()

Korrupsiyaga qarshi ichki nazoratning o'rnatilganligi ayrim yirik korporatsiyalarning nufuziga putur yetkazilishining oldini oladi,xodim va ish beruvchi o'rtasidagi qonun-

qoidalarni ham belgilab beradi va korrupsiya hollarida qonunda belgilangan zaruriy chora-tadbirlarni ham belgilab beradi.

Komplayens nazorat tizimining o'ziga xos xalqaro prinsiplari xalqaro hujjatlarda alohida ta'kidlab o'tilgan prinsiplar quyidagilar:

- Shaxsiy namuna(tone at the top)
- Korrupsiyaga nisbatan muhosasizlik(zero tolerance to corruption)
- Ochiqlik va shaffoflik(openness and transparency)
- Xabar berish siyosati(internal and external whistleblowing policy)
- Tizimli tahlil(monitoring)
- Kontragent(due diligence)

Korrupsiyaga qarshi xabar berish mexanizmi bugungi kunda dunyoda ,xususan, Singapurda ijobiy samara bergan.O'z faoliyatida komplayens nazoratni joriy etgan davlatlar (AQSH,Buyuk Britaniya,Xitoy,Sloveniya) bu tizimni uch modelga bo'lishgan

1. Ixtisoslashgan korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat xizmati modeli
2. Moslashgan korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat xizmati modeli
3. Aralash korrupsiyaga qarshi komplayens xizmati modeli

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq , 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyatida komplayens nazorat tizimini yo'lga qo'yishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaning oldini olishda rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish,ularni amaliyotda qo'llash va korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish kutilgan samarani bermoqda. BMT tomonidan 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan konvensiyaga O'zbekiston 2008-yil 7-iyuldagi qonun bilan mazkur konvensiyaga qo'shilishi korrupsiyaga qarshi kurashishda katta qadam bo'lib xizmat qildi.

Hozirgi kunda barcha davlatlar qonunchiligida "korrupsiya" alohida o'rin egallaydi.Ammo Finlandiya Jinoyat kodeksida "korrupsiya"degan so'zni

uchratmaymiz. Mazkur davlatda korrupsiyaga qarshi maxsus qonunlar ham , korrupsiyaga qarshi kurashish uchun maxsus organlar ham mavjud emas. Shunga qaramay yiliga 3 yoki 4ta poraxo'rlilik bilan bog'liq jinoyat ishi ko'riladi. Finlandiya Konstitutsiyasi va shu kabi qator hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan bo'lib , ular orasida eng muhimi Axloq hisoblanadi. Korrupsiya darajasining sezilarli darajada pastligining asosiy sabablaridan biri Ommaviy axborot vositalarining erkinligi. Korrupsiya bo'yicha aniqlangan har bir holat e'lon qilib boriladi.

Yana bir xorijiy davlat Yangi Zelandiyani keltirsak, ushbu davlat ham korrupsiya darajasi pastligi bo'yicha yuqori pog'onalarni egallaydi. Ahamiyatli jihati shundaki, Yangi Zelandiya qonunchiligida har bir davlat davlat amaldorini javobgarlikka tortish alohida belgilangan. Sudyalar va sud xodimlarining poraxo'rligiga alohida , vazirlar poraxo'rligiga alohida va huquqni , uhofaza qilish organlariga javobgarlik yana boshqa bandlarida kelgan. Bu orqali har bir xodim o'zining jamiyatdagi o'rni, yuklatilgan vazifaning qanchalik ahamiyatli ekanligini chuqur his qiladi va mas'uliyati ortadi.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilar ekanmiz, korrupsiyaga oid javobgarlik masalalari, davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar electron tartibda amalga oshirilishi, barcha sohalarda jamoatchilik nazorati va mansabdor shaxslarning mulklarini deklaratsiya qilish tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday ta'kidlagan edi: "Har bir jinoyat yoki huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha har qaysi hudud o'z tajribasini yaratishi kerak" Yurtimizda "Jinoyat haqiqati va adolati" tamoyili ya'ni jinoyat so'zsiz fosh etilishi , aybdor jazolanishi shart deyiladi.

Korrupsiyaviy jinoyat uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi maxsus qismida mustahkamlab qo'yilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilib , korrupsiyaning oldini olish bo'yicha quyidagi takliflarni kiritamiz:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, Xalqaro tashkilotlar qabul qilgan konvensiyalarga qo'shilib, ular ijrosini yetarlicha ta'minlash. Xorijiy davlat tajribalarini O'zbekistonda qo'llash.

2. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi va korrupsiyaning salbiy oqibatlari haqida videoroliklar tayyorlab uni insonlarga televideniya, gazeta orqali tushuntirish. Bu orqali korrupsiya yuzaga kelishi bilan bog'liq holatkar sezilarli darajada kamayadi.

3. Har bir hududiy sektorlarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, korrupsiya holatlariga duch kelganda darhol tegishli organlarga xabar bergan subyektlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan rag'batlantirish.

4. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim va chora-tadbirlarni amalga oshirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun 2017-yil 3-yanvar
2. Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi ma'ruzalari 2025-yil
3. Maqola. "Korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy davlatlar tajribasi" – Shahriyorov Hamidulla Shavkat o'g'li
4. Maxmudov.F.B "Davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi"2023
5. A.A.Otajonov "Iqtisodiy jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari"2026
6. Maqola. "Korrupsiyaga qarshi kurash tushunchasini o'rganishning nazariy masalalari" Sardorbek Gaibnazarov 2020
7. S.S.Niyozova, K.B.Hakimov "Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi" 2025
8. Nurmuhammedova Go'zalxon Bahodirova "Korrupsiya va korrupsoyaga oid jinoyatlarning nazariy-huquqiy asoslari: Ta'rif, belgilar va tasniflash muammolari"2025



9.Малыхин,Д.В Особенности организации комплаенс-контроля в российских банках
2009